

ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDA AYOL OBRAZI

Xolmurodova Odinaxon Dilmurod qizi

Filologiya va tillarni o‘qitish

o‘zbek tili talabasi

Annotatsiya: Ushbu matnda o‘zbek adabiyotida ayol obrazining shakllanishi, uning turli davrlardagi mazmuniy talqinlari hamda Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi ayollar qiyofasi tahlil qilinadi. Matnda Oychechak opa, Yog‘du va Sevinch kabi obrazlar o‘ziga xos xarakteri, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy o‘rni bilan ko‘rib chiqilgan. Har bir obraz orqali jamiyatdagi ayollarning turli hayotiy qiyofalari, qadriyatlar bilan modern qarashlar to‘qnashuvi, onalik, sadoqat, iztirob va ayolning baxtga bo‘lgan tabiiy intilishi yoritiladi. Shuningdek, romandagi ism berish masalasi, avlod davomiyligi va oilaviy mas’uliyat mavzulari ham tahlil markaziga qo‘yilgan. Matn roman va undagi ayollar obrazi orqali jamiyat uchun muhim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy muammolarni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek adabiyoti, ayol obrazi, Ulug‘bek Hamdam, “Ota” romani, Oychechak opa, Yog‘du, Sevinch, onalik, sadoqat, ruhiy kechinma, avlod davomiyligi, modernizatsiya va qadriyatlar, taqdir.

O‘zbek adabiyoti uzoq tarix davomida turli davrlar, madaniy jarayonlar va ijtimoiy sharoitlar ta’sirida shakllanib kelgan. Bu jarayonda ayol obrazining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va mazmunan boyib borishi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlar, milliy qadriyatlari hamda madaniy merosi adabiyotda ayol timsolini turfa ko‘rinishlarda tasvirlash uchun mustahkam asos yaratgan. Adabiy manbalarda ayollarning jamiyatdagi mavqei, ularning ichki olami, ma’naviyati va ruhiy kechinmalariga doir yondashuvlar har bir davrning o‘ziga xos estetik tamoyillari orqali ifodasini topgan. Huddi shunday tamoyillar sabab o‘zbek romanchiligida ayol obrazi turli qiyofalarda gavdalanadi. Jumladan:

a) mukammal insoniy fazilatlarni mujassam etgan ideal ayol;

- b) taqvodor yoki ma'rifatli ayol;
- c) onalik burchini bajaruvchi, mehribon ayol;
- d) sevikli yor sifatida berilgan ayol timsoli.

Shu jihatdan qaraganda, romanlarda ayol mavzusi nafaqat ayollarning ozodlik uchun kurashi yoki jamiyatdagi mavqeiga bag'ishlanadi, balki G'arb sivilizatsiyasidan kirib kelayotgan yangicha qarashlar, an'anaviy qadriyatlar bilan modern tushunchalarning to'qnashuvi ham ayollar hayoti orqali yoritiladi. Ayol shaxsiyatining ijtimoiy jarayonlarda tutgan o'rni esa roman poetikasida alohida tadqiq etiladigan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan asar, ya'ni "Ota" romani Umarali Normatov aytganidek "barcha otalarga bag'ishlangan" bo'lishiga qaramay bu asardagi ayol obrazli ham o'ziga xos va asarda turlicha xarakterga ega bolib, onalarning roli yetarli darajada ochib berilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda o'zbek adabiyotida Ulug'bek Hamdam "Yolg'izlik", "Sabo va Samandar", "Isyon va itoat" kabi asarlari bilan o'z o'rniga ega hatto "Muvozanat" romanining dovrug'i Amerikagacha yetib borgan. Ammo yozuvchining ijodida "Ota" romoni ham alohida e'tiborga ega hisoblanadi. Bu romon boshqa asarlaridan ixchamligi va shu roman ichida ikkinchi jahon urushi voqealaridan tortib, bugungi kun hayotigacha bolgan voqealarni oz ichiga sig'dira olganligi bilan ajralib turadi.

Asarda ayol obrazlari masalasiga murojat etar ekanmiz, avvalo Oychechak opa, Yog'du va Sevinch kabi qahramonlarga alohida to'xtalish zarur. Har bir obraz asarda o'ziga xos xarakteri, hayotga munosabati va ichki kechinmalari bilan ajralib turadi. Ularning har biri muallif yaratgan badiiy makonda ma'lum g'oyaviy vazifani bajaradi hamda jamiyatdagi ayolning turli qiyofalarini ifodalaydi. Shu sababli bu qahramonlarni individual tahlil qilish roman mazmunidagi ayollar mavzusini yanada teranroq anglashga yordam beradi.

Ma'lumki, asar voqealari Oychechak opaning yagona o'g'li Po'latning farzandsizligiga davo izlash jarayoni bilan boshlanadi. Muallif Oychechak opa xarakterini tasvirlar ekan, uni "hech kimga gap bermagach, bir qop yong'oqdek aldir-

shaldir ayol” sifatida ko‘rsatadi. Bu ta’rif asar davomida obrazning tabiati, hayotga munosabati va o‘ziga xos beparvogarchiligini ochib beradi.

Oychechak opaning eng katta tashvishi — yagona zurriyotining farzandsiz o‘tayotgani, avlodning davom etmasligi. Shu sababli u folbinlar, dam soluvchilar, azoyimxonlarga qatnab, ular yordamida muammo hal bo‘lishiga ishonadi. Muallif bu obraz orqali jamiyatda uchrab turadigan bid’atlarga ishonuvchan ayollar tipini yorqin ifodalaydi. Po‘lat farzandli bo‘lgach, Oychechak opa bu holatni ham ana shu folbinlar “duosi” natijasi deb bilib, boshqalarga faxr bilan aytadi.

Folbinlarga tez-tez qatnashi natijasida Oychechak opa ularning oldiga nima olib borish kerakligini ham mukammal darajada o‘rganib oladi. Bunga misol qilib nevarasi Sevinch yo‘qolganida uning ko‘ylagidan bir parcha olib borib, folbinga murojaat qilganini eslash mumkin. Hatto nabirasini topib berishsa, oyoqlari ostiga ho‘kiz so‘ymoqchi bo‘lishi — uning ishonuvchanligi qanchalik kuchli ekanini ko‘rsatadi. Bu bilan muallif onalarga xos mehr va xavotirning haddan ziyod shaklini badiiy talqinda ifodalaydi.

Asarda Oychechak opaning fojeasi nabirasi yuzining kuyishi bilan yanada chuqurlashadi. Bu voqeadan so‘ng uning avvalgi sho‘x, aldir-shaldir hayotga munosabati butunlay o‘zgaradi, go‘yo yuzidagi kulgi ham kuygan kabi tasvirlanadi. Vaqt o‘tishi bilan Oychechak opaning yuragidagi iztirob kuchayib boradi. Asarda u nafaqat ona balki O‘tkir akaning turmush o‘rtog‘i ham hisoblanadi. Birinchi bo‘lib umr yo‘ldoshi vafot etadi, bu esa ayolning ruhiy tushkunlikka tushishiga sabab bo‘ladi. Avvalari umr yo‘ldoshini yo‘lga solgan ham men, uni suyanchig‘i ham men, mensiz uni bir kuni ham o‘tmaydi deydigan Oychechak hola, umr yo‘ldoshi vafot etgach aslida tirgak bu O‘tkir aka ekanligini tushunib yetadi. Keyinchalik u tobora zaiflashib, uzul-kesil to‘shakka mixlanadi va oxir-oqibat erining ortidan boqiy dunyoga ravona bo‘ladi.

Oychechak opa obrazi asarda kishilik taqdirining murakkabligi, onalik tuyg‘usining cheksizligi, e’tiqod va ishonchlilikning ijobiy hamda salbiy tomonlari orqali badiiy talqin qilingan muhim qiyofalardan biridir.

Asardagi navbatdagi muhim obraz — Po‘latning umr yo‘ldoshi Yog‘du. Muallif uni “musichadek beozor, tog‘dek yukni indamay ko‘taradigan, dardini ichiga yutib yuradigan ayol” sifatida tasvirlaydi. Bu ta‘rif Yog‘duning nafaqat kamtarin va muloyim, balki mustahkam ruhli ayol ekanini ham anglatadi.

Yog‘du o‘z turmush o‘rtog‘iga sadoqatli ayol sifatida namoyon bo‘ladi. Po‘latning qamoqda yoki urush girdobida yurgan yillarida ham u bir lahza bo‘lsin eriga xiyonat qilmaydi. Ularning 15 yil davom etgan farzand sog‘inchi ham Yog‘duning matonatini sinaydi, biroq u bu dardu hasratni hamon ichiga yutib, sukut bilan kechiradi. Nihoyat, yorug‘ kunlar kelib, Yog‘du onalik baxtiga muyassar bo‘lgach, uning hayoti butunlay mazmun kasb etadi.

Yog‘du onalik tuyg‘usini shunchalik teran his qiladiki, hatto maktabdagi ishiga qaytishga ham ko‘ngli bo‘lmaydi. Bu orqali muallif onaning farzandiga bo‘lgan mehri naqadar buyuk kuch ekanini ko‘rsatadi. Yog‘du ko‘plab zamonaviy ayollarga ibrat bo‘la oladigan obraz sifatida gavdalanadi. U farzandini tashlab ishga oshiqmaydi, aksincha, qizini tarbiyalashni, uning ruhiy ehtiyojlarini his qilishni eng muhim vazifa deb biladi. Qiziga qattiq gapirib, zug‘um qiladigan emas, balki mehr bilan yo‘l ko‘rsatadigan, dardini tinglaydigan dugonaona sifatida tasvirlanadi.

Po‘lat hayotining yorug‘lik manbai ham aynan Yog‘du edi. U urush chog‘ida ham xotini uchun tirik qolishga intiladi. Yog‘du uyidan ketganida esa Po‘lat uning hayotidagi o‘rni va ahamiyatini yanada chuqurroq anglaydi. Muallif Po‘latning ichki kechinmalarini quyidagi so‘zlar orqali ifodalaydi: “Oyi bo‘lmagan — oysiz qolgan kunlar, Yog‘dusiz kunlar — yog‘dusiz...”. Bu jumla Yog‘duning Po‘lat uchun nafaqat turmush o‘rtog‘i, balki hayotining mazmuniy tayanchi bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi.

Yog‘du obrazi asarda fidoyilik, sabr, sadoqat va onalik mehrining yuksak badiiy timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarda barcha voqealar qatorida muhim o‘rin egallagan navbatdagi obraz — Sevinch. U Oychechak opa va Yog‘duning orqa-oldiga sig‘magan quvonchi, farzandsizlik yillarining dardini unuttirgan mo‘jiza sifatida gavdalanadi. Muallif Sevinchni shunday tasvirlaydiki, uning dunyoga kelishi bilan oilaning butun borlig‘i

o'zgacha mazmunga ega bo'ladi. Bobo-buvisidan tortib ota-onasigacha Sevinch uchun barcha sharoitni yaratishga, uning tilaganini bajo keltirishga tirishadilar. Qahramonning hayot tarzidagi bu shodlik muallif tomonidan "O'ris ertaklaridagi zolushkaga aylandi qoldi" degan obrazli ta'rif bilan ifodalanadi.

Bu tasvirlardan so'ng kitobxonning Sevinchni erka qiz sifatida tasavvur qilishi tabiiy. Asar davomida esa muallif kitobxonni shu savol bilan hamroh etadi: "Sevinchning bu baxti umrining oxirigacha davom etarmikan?" Biroq voqea burilishida yuz bergan o'sha mash'um hodisa Sevinchning hayotini ham, oilaning umumiy kayfiyatini ham tubdan o'zgartirib yuboradi. Yuzidagi jarohat — uning nafaqat tashqi ko'rinishida, balki taqdirida ham chuqur iz qoldiradi. Endi u bog'chada, maktabda, keyinchalik esa oliy ta'limda ham o'zini yolg'iz his etadi. Do'st topolmaydi, suhbatdosh orttira olmaydi. Sevinchning "Ota, men sizdan boshqa o'rtog'im bo'lmaydimi?" degan iztirobli savoli uning ichki dunyosidagi og'riqni aniq ko'rsatib turadi.

Kitobxon shu nuqtada ixtiyorsiz ravishda o'ylaydi: endi bu qizning taqdiri ne bo'ladi? Avlod shu yerda tugaydimi? U oila qura oladimi? Muallif esa voqealarni kutilmagan tarzda davom ettiradi: Sevinch farzandli bo'ladi — biroq nikohsiz. Bu esa oilada yangi savollar va muammolarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, ayolning baxtli bo'lishga, ona bo'lishga bo'lgan tabiiy haqqi bor; boshqa tomondan, ota-onaning sha'ni, avlodning davomiyligi kabi masalalar og'ir o'ylar uyg'otadi. Muallif aynan shu qarama-qarshilik orqali jamiyatda ayolning o'rni, huquqi, erkinligi va qadri haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydi.

Asarda ismlarga berilgan ma'no ham e'tibordan chetda qolmaydi. Qahramonlar ismi ularning xarakterini belgilaydigan vosita sifatida qo'llangan: O'tkir — qat'iyatli va keskin, Po'lat — bardoshli va irodali, Yog'du — oila uchun mehr va nur manbai, Sevinch — oilaga shodlik olib kelgan farzand. Muallif O'tkir aka tilidan aytilgan "...bir tomonimiz arabiyu boshqa tomonimiz forsiy ismlar bo'lib ketgan. Hatto ular juda-juda ko'p o'rtada muvozanatni saqlash uchun, otlarimiz aytilganda qaysi millatga tegishli

ekanimiz bilinib tursin..” degan jumla orqali bugungi kundagi ism qo‘yishdagi madaniy muvozanatsizlikka ham ishora qiladi.

Umuman, o‘zbek adabiyotida ayol obrazi har bir davrning ehtiyoji, ijtimoiy sharoiti va ma’naviy talabidan kelib chiqib turlicha talqin qilinib keladi. Ulardan ba’zilari yuksak badiiy darajaga ko‘tarilgan bo‘lsa, boshqalari bir ko‘rishda esdan chiqib ketishi ham tabiiy. Ulug‘bek Hamdamning ushbu asari esa bugungi o‘quvchi uchun ham juda dolzarb. Chunki bugun ham ota-onaga bepisand qaraydigan, qizining nomusini o‘z sha’ni deb bilmaydigan holatlar jamiyatimizda uchrab turadi. Shunday illatlardan yiroq bo‘lish, oilaning qadri va ajdodning mas’uliyatini his qilish uchun bu roman har bir inson o‘qishi zarur bo‘lgan asarlardan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ulug'bek Hamdam "Ota" romani - T.: 2020. "Yangi asr avlodi". - 208 b. // www.ziyo.com kutubxonasi.
2. Zamonaviy o`zbek adiblari romanlarida ayol obrazi tasviri (Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva ijodi misolida) Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) ... dis.